

SANOAT KORXONALARIDA MAHSULOT SIFATI VA UNING RAQOBATBARDOSHLIGI

To‘rabekova Gulira’no Islamovna

Toshkent davlat texnika universiteti

Sanoat iqtisodiyoti va menejmenti kafedrasida katta o‘qituvchi

ANNOTATSIYA

Sanoat korxonalari milliy iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga ular nafaqat milliy iqtisodiyotda balki, ijtimoiy sohada ham muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada sanoat korxonalarida mahsulot raqobatbardoshligini oshirishning ayrim muammolari ko‘rib chiqilgan va sanoat korxonalarida mahsulot raqobatdoshligini oshirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar bayon etilgan.

***Kalit so‘zlar** :mahsulot sifati va raqobatbardoshligi, mustahkamlik ko‘rsatkichlari, texnologik ko‘rsatkichlar, standartlashtirish va unifikatsiyalash ko‘rsatkichlari, estetik ko‘rsatkichlar, transportabellik ko‘rsatkichlari, patent-huquqiy ko‘rsatkichlar va boshqalar.*

АННОТАЦИЯ

Промышленные предприятия являются одной из важных отраслей национальной экономики. Вместе с тем, они имеют огромное значение не только в экономике, но и в социальной отрасли. В статье рассмотрены некоторые вопросы повышения конкурентоспособности и даны предложения и рекомендации относительно повышения конкурентоспособности продукции.

***Ключевые слова:** качество и конкурентоспособность продукции, показатели долговечности, технологические показатели, показатели стандартизации и унификации, эстетические показатели, показатели транспортабельности, патентно-правовые показатели и др.*

ABSTRACT

Industrial enterprises are one of the key sectors of the national economy. Alongside their economic impact, they play a crucial role in the social sphere as well. This article examines some issues related to increasing the competitiveness of products in industrial enterprises and provides recommendations and suggestions for enhancing product competitiveness within these enterprises.

***Keywords:** product quality and competitiveness, durability indicators, technological indicators, standardization and unification indicators, aesthetic indicators, transportability indicators, patent and legal indicators, etc.*

KIRISH

O‘zbekiston iqtisodiyoti rivojlanishiga ulkan hissa qo‘shib kelayotgan sohalardan biri sanoatdir. Iqtisodiyotning mazkur tarmog‘i yuqori salohiyatga ega bo‘lib, unda aholi ehtiyojlarini qondirish uchun zarur mahsulotlar ishlab chiqariladi va sanoat korxonalarida samaradorlikning oshishi aholi turmush darajasi yaxshilanishini ta‘minlaydi.

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti ishlab chiqariladigan mahsulot sifatiga boshqacha muhim talablar qo‘yadi. Chunki hozirgi zamonda har qanday firmaning omon qolishi, uning tovarlar va xizmatlar bozoridagi mustahkam mavqei raqobatbardoshlik darajasi bilan belgilanadi. O‘z navbatida raqobatbardoshlik ikki ko‘rsatkich bilan - baho va mahsulot sifatining darajasi bilan bog‘liqdir.

Ishlab chiqarishni erkinlashtirish davrida ikkinchi omil birinchi o‘ringa ko‘tarilmoqda. Chunki sifat korxonaning obro‘si va yanada gullashi hamda sifatni boshqarish bo‘yicha ish - bu barcha xodimlar, rahbardan tortib aniq ish bajaruvchi avvali va oxiridir. Shu tufayli davlatning iqtisodiy, shu jumladan, sanoat siyosatida sifat masalasi muhim o‘rin egallaydi.

Mahsulot sifati va raqobatbardoshligi sanoat korxonalari xo‘jalik faoliyatining asosiy va eng muhim ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Mahsulot sifati mahsulotning iste‘mol xususiyatlari majmui bo‘lib, uning xalq xo‘jaligi va aholining muayyan ehtiyojlariga yaroqliligini ifodalaydi.

Mahsulot sifati va raqobatbardoshligi tayyorlangan mahsulotning, qulayligi, ishonchliligi, chidamliligi, tejamkorligi, go‘zalligi va boshqa bir qator xususiyatlari bilan belgilanadi. Shu sababli mahsulot sifatini yaxshilash jamiyatga juda katta samara keltiradi: mablag‘larni tejaydi, tannarxni kamaytirish, foydani ko‘paytirish va shu asosda mamlakat xazinasini to‘ldirishga imkon beradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Raqobatbardoshlik – ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar (ish va xizmatlar) bozorga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishni texnologik yangilanish jarayonidir. U korxonalarining texnologik qoloqligini bartaraf etish vositasi bo‘lib, mehnat, moddiy va xom ashyo resurslardan samarali foydalanish darajasiga keskin ta‘sir ko‘rsatadi. Modernizatsiya, texnik va texnologik yangilash natijalari yuqori texnologik, raqobatbardosh ishlab chiqarishning jadal rivojlanish shartini belgilab beradi. Raqobatbardosh mahsulot esa mamlakatda ishlab chiqarilgan, o‘z sifat ko‘rsatkichlari, tannarxi jihatidan milliy va jahon bozorida shunday mahsulotlar bilan raqobat qila oladigan mahsulotdir.

Davlatimiz tomonidan iqtisodiyot tarmoqlari uchun samarali raqobatbardosh muhitni shakllantirish hamda mahsulotlar va xizmatlar ko‘rsatish bozorlarida

monopoliyani bosqichma bosqich kamaytirish, prinsipial jihatdan yangi mahsulot va texnologiyalar turlarini chiqarishni o'zlashtirish, bunga asosan ichki va tashqi bozorlarda milliy tovarlarning raqobatbardoshligini ta'minlash kabi vazifalar belgilab berilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.07.2020 yildagi "Raqobat muhitini yanada rivojlantirish va iqtisodiyotdagi davlat ishtirokini qisqartirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PF-6019-sonli farmoni hamda 2020 — 2024-yillarda tovar va moliya bozorlarida raqobatni rivojlantirish strategiyasi ishlab chiqildi. Strategiyaning maqsadi biznes subyektlariga nisbatan tartibga solish yukining yuqoriligi va tarmoqni tartibga soluvchi organlarning o'z sohasida raqobatni rivojlantirishga manfaatdor emasligi, imtiyoz va preferensiyalar taqdim etishning samarasizligi hamda raqobatga qarshi harakatlarga qarshi kurashishning huquqiy mexanizmlari takomillashmaganligi kabi muammolarga yechim topishdan iborat.

Mahsulotning raqobatbardoshligiga quyidagi yo'llar bilan erishish mumkin:

- a) yangi mahsulotlarni iste'mochilarga arzon narxda sotish;
- b) mahsulot sifatini yaxshilash;
- v) qo'shimcha xizmat ko'rsatish;
- g) reklama;
- d) xaridorlar uchun turli imtiyozlar yaratish;

Mamalakatda ishlab chiqariladigan mahsulotlar sifatini oshirib, quyidagi yo'nalishlarda imkoniyatlarini kengaytirish ko'zda tutilgan:

a) O'zbekiston eksporti uchun an'anaviy bo'lgan tarmoqlarda (paxtachilik, ipakchilik, qorako'lchilik, mevachilik) ishlab chiqarish samaradorligi va mahsulot sifatini oshirish;

b) yengil va oziq-ovqat sanoatida tayyor mahsulotni ishlab chiqarishni kengaytirish;

v) og'ir sanoatni ilg'or tarmoqlari bo'lgan mashinasozlik, aviasozlik, kimyo, rangli metallurgiya sohalarida eksport uchun mo'ljallangan raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqalar

Mahsulot sifatini yaxshilash va uning raqobatbardoshligini ta'minlash davlat siyosatining eng muhim muammolaridan biri hisoblanadi. Shu sababli Oliy Majlis qonunlarida, Prezident farmonlarida va hukumat qarorlarida mahsulot va ish sifatini oshirishga alohida e'tibor berilib, ularda barcha turdagi mahsulotlarning texnik darajasi, tejamlilik va sifati oshirilsin deyiladi.

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti ishlab chiqariladigan mahsulot sifatiga qat'iy talablar qo'yadi. Chunki hozirgi zamonda har qanday korxonaning omon qolishi,

uning tovarlar va xizmatlar bozoridagi mustahkam mavqei raqobatbardoshlik darajasi bilan belgilanadi.

Raqobatbardoshlik ikki ko‘rsatkich - baho va mahsulot sifatining darajasi bilan bog‘liqdir.

Raqobatbardosh mahsulotlar ko‘plab mamlakatlarda ishlab chiqariladi, va har bir mamlakat turli sohalarda o‘zining kuchli tomonlariga ega. Masalan: Germaniya: kuchli ilmiy tadqiqot bazasi va muhandislik ishlanmalariga sarmoyalar tufayli Germaniya mashinasozlik va avtomobilsozlikda yetakchilik qilmoqda hamda yuqori sifatli mahsulotlar taklif qilmoqda. Yaponiya: yapon kompaniyalari tadqiqot va ishlanmalariga faol investitsiya kiritib, elektronika va robototexnika sohasida yetakchilikni saqlab qolmoqda. AQSH: startaplar va innovatsiyalar uchun rivojlangan infratuzilma hamda malakali kadrlarga ega bo‘lgan AQSH texnologiyalar, tibbiyot va biotexnologiyalar sohasida yetakchi bo‘lib qolmoqda. Janubiy Koreya: innovatsiyalar va eksportni qo‘llab-quvvatlash strategiyasi tufayli Janubiy Koreya elektronika va avtomobilsozlik bozorida tezda o‘z o‘rnini topdi. Xitoy: oxirgi o‘n yillikda Xitoy arzon ishlab chiqarish markazidan yuqori texnologiyalar markaziga aylandi va tadqiqot va ishlanmalarga faol sarmoya kiritmoqda. Shveysariya: yuqori ta‘lim va barqaror iqtisodiyot tufayli Shveysariya soat va farmatsevtika kabi yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishda yetakchi. Italiya: italyan mahsulotlari yuqori sifat va noyob dizaynga ega bo‘lib, bu ayniqsa moda va avtomobilsozlikda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Skandinaviya mamlakatlari: bu yerda barqaror rivojlanish va ekotexnologiyalardagi innovatsiyalarga e‘tibor beriladi, bu esa ekologik toza mahsulotlarga bo‘lgan talabni qondiradi. Ushbu misollar raqobatbardosh bo‘lib qolish uchun global bozorda innovatsiyalar va o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashish muhimligini ta‘kidlaydi.

Ishlab chiqarishni erkinlashtirish davrida ikkinchi omil birinchi o‘ringa ko‘tarilmoqda. Chunki sifat korxonaning obro‘si va yanada gullashi uchun zarur bo‘lgan ko‘rsatkichdir. Shu tufayli davlatning iqtisodiy, shu jumladan, sanoat siyosatida sifat masalasi muhim o‘rin egallaydi.

Mahsulot sifati - mahsulotdan ma‘lum maqsadda foydalanish uchun uning yaroqlilik darajasi, mahsulotning xalq xo‘jaligi ehtiyojlarini, iste‘molchilarning talab va didlarini qondirish qobiliyatidir.

Sanoat mahsuloti sifati tarmoqning, korxonalar (firma)ning faoliyatini rejalashtirishda va uni aniqlashda qo‘llaniladigan asosiy ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Unda mehnatni tashkil qilish, uning jihozlanish darajasi, mutaxassislarning malakasi, ishlab chiqarishni boshqarishning holati ifodalanadi.

Mahsulot sifati texnika taraqqiyotining sur'atlarini, mehnat unumdorligini va shu orqali ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini ta'riflovchi iqtisodiy kategoriyadir. Maxsulot sifatini muntazam ravishda yaxshilash iqtisodiyotni rivojlantirishning zarur sharti, ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, xalq farovonligini o'stirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Sanoat ishlab chiqarishi o'z mahsulotlarining g'oyat turli-tumanligi bilan tavsiflanadi. Bu mahsulotlar tabiiy xususiyatlariga ko'ra, har xil me'yor va xilma-xil sifat ko'rsatkichlariga ega. Lekin, ma'lum sanoat mahsulotlarining muayyan guruhi uchun umumiy ko'rsatkichlar ishlatilishi, boshqa guruhi uchun esa o'ziga xos ko'rsatkichlar qo'llanilishi mumkin.

Mahsulot sifatiga va uning texnikaviy xususiyatlariga baho berish uchun quyidagi ko'rsatkichlar tizimi qo'llaniladi:

Iste'mol qilish xususiyatlari bo'yicha talabni qondirish ko'rsatkichlari. Bunday ko'rsatkichlar mahsulotdan tayinli, belgilangan ravishda foydalanish natijasida kerakli (zaruriy) samarani tavsiflaydi. Ishlab chiqarish - texnik vazifani bajaruvchi mahsulot uchun mehnat unumdorligi ko'rsatkichi xizmat qilishi mumkin. U baholanayotgan mahsulot yordami bilan qanday hajmdagi mahsulotni tayyorlash yoki ma'lum davr ichida qanday hajmdagi ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatishi mumkinligini ifodalaydi.

Mustahkamlik ko'rsatkichlari - buyumlarning buzilmasligi, yaxshi saqlanishi, ta'mirlashga qulayligi, shuningdek, chidamliligidir. Mashina va o'lchov asboblarning sifati ularning mustahkamligiga va uzoq ishlash qobiliyatiga qarab aniqlanadi.

Texnologik ko'rsatkichlar mahsulotni tayyorlash va ta'mirlash jarayonida yuqori mehnat unumdorligini ta'minlash uchun konstruktor-texnologik yechimlar samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlardir. Aynan texnika va texnologiya yordamida mahsulot ishlab chiqarishning ommaviyligi, material xarajatlarini, mablag'lar, mehnat va vaqtni okilona taqsimlash ta'minlanadi.

Mahsulotlarning raqobatbardoshligi zamonaviy biznesda juda muhim ahamiyatga ega. Raqobatbardoshlik mahsulot yoki xizmatning bozorda boshqa shunga o'xshash takliflar bilan qanchalik muvaffaqiyatli raqobat qila olishini belgilaydi. Uning ahamiyatini ta'kidlaydigan bir nechta asosiy jihatlar mavjud:

1. Bozor ulushini oshirish: Yuqori raqobatbardoshlik kompaniyalarga ko'proq mijozlarni jalb qilish va bozordagi ulushini oshirish imkonini beradi.

2. Innovatsiyalar va sifat: Raqobat kompaniyalarni yangi texnologiyalarni joriy etish, mahsulot va xizmatlar sifatini yaxshilashga undaydi, bu esa mijozlarning qoniqish darajasini oshiradi.

3. Narx siyosati: Raqobatbardosh kompaniyalar mijozlar uchun jozibador narxlarni taklif qilish imkoniga ega bo'lib, mahsulotlarini ko'proq ommalashtiradi.

4. O'zgarishlarga barqarorlik: Yuqori raqobatbardoshlikka ega kompaniyalar iqtisodiy o'zgarishlar va iste'molchilar talablaridagi o'zgarishlarga yaxshiroq moslashadi. 5. Brend va obro': Raqobatbardosh mahsulotlar kuchli brend yaratishga yordam beradi, bu esa iste'molchilar ishonchini oshirib, ularning sadoqatini ta'minlaydi.

6. Globallashtirish: Global iqtisodiyot sharoitida kompaniyalar xalqaro raqobatga duch kelmoqda, bu esa raqobatbardoshlikni saqlash zaruratini yanada dolzarbroq qiladi.

7. Ekologik va ijtimoiy omillar: Zamonaviy iste'molchilar mahsulotlarning ekologik va ijtimoiy jihatlariga ko'proq e'tibor qaratmoqda. Bu omillarni hisobga olgan kompaniyalar raqobat ustunligiga erishishi mumkin.

Shunday qilib, mahsulotlarning raqobatbardoshligi biznes yuritishda muvaffaqiyatga erishish va bozorda uzoq muddatli barqarorlikka erishish uchun muhim omildir.

Standartlashtirish va unifikatsiyalash ko'rsatkichlari — mahsulotning standartli, unifikatsiyalashgan va original, ya'ni ajoyib, ajralmas qismlar bilan qondirilganligi, to'ydirilganligi, shuningdek, boshqa buyumlarga nisbatan unifikatsiyalashganlik darajasi. Ular traktorni boshqarish uchun kerak bo'lgan kuchlar, muzlatgichda dastakning joylashishi, harorat, namlik, yorug'lik, **shovkin**, vibratsiya, nurlanish, yonuvchi mahsulotlarda uchar gazi va suv bug'ining yig'ilishi bo'lishi mumkin.

Estetik ko'rsatkichlar buyumlarning badiiy-konstruktorlik xususiyatlarini ifodalaydi. Ular buyumning tovar qiyofasi jonliligini, shaklining ma'qulligini, kompozitsiyaning butunliligini, mukammal bajarilganligini va barqarorligini tavsiflaydilar.

Transportabellik ko'rsatkichlari mahsulotning tashish uchun moslashganligini fodalaydi.

Patent-huquqiy ko'rsatkichlar mahsulotning patentli himoyasini va patentli sarxilligini (asilligini) tavsiflaydi va raqobatbardoshligini aniqlashda muhim omil hisoblanadi. Patent-huquqiy ko'rsatkichlarni aniqlashda buyumlarda yangi texnik omillar borligini, shuningdek, mamlakatda patentlar bilan himoyalangan yechimlarni hisobga olish kerak bo'ladi.

Ekologik ko'rsatkichlar atrof-muhitga xavfli ta'sir ko'rsatish darajasi. U mahsulotni ekspluatatsiya qilish yoki iste'mol qilishda yuzaga keladi. Masalan, zararli qotishmalarning bo'lishi, mahsulotni saqlash, tashish va iste'mol qilishda zararli qismlar, gazlar va nurlarni chiqarish mumkinligi.

Xavfsizlik ko'rsatkichlari — xaridor va xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning xavfsizligi uchun mahsulot xususiyatlarini tavsiflaydi, ya'ni mahsulotni montaj qilish, xizmat ko'rsatish, ta'mirlash, saqlash, tashish, iste'mol qilishda xavfsizlikni ta'minlaydilar..

Demak, hozirgi zamon ishlab chiqarishi sharoitida mahsulot sifati — korxonalar (firma) samaradorligining, rentabelligining muhim tarkibiy qismidir. Shu sababli unga doimo e'tibor bermoq zarur. Sifat bilan barcha - korxonalar direktoridan tortib, aniq ish bajaruvchigacha shug'ullanishi kerak.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.07.2020 yildagi "Raqobat muhitini yanada rivojlantirish va iqtisodiyotdagi davlat ishtirokini qisqartirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PF-6019-sonli farmoni.
2. UNIDO "Competitive Industrial Performance report 2022"
3. Z Dou, B Wu, Y Sun, T Wang "The competitiveness of manufacturing and its driving factors: a case study of G20 participating countries". Journal of Sustainability. 22 January 2023.
4. Эскерова, З. А. Основные инструменты в арсенале статистических методов контроля качества продукции. Вестник КарГУ – 2023 г - с. 90
5. Левкина, Е.В. Контроль качества продукции / Е.В. Левкина // Управление качеством – 2022 – с. 57.
6. БУРХАНОВА Л. М. ОСОБЕННОСТИ ОПРЕДЕЛЕНИЯ ПРАВОВОЙ ПРИРОДЫ И ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ДОГОВОРА ЭНЕРГОСНАБЖЕНИЯ КАК ОСНОВЫ ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ И ОБСЛУЖИВАЮЩЕЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ ЭКОНОМИКИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.
7. Burkhanova L. GROUNDS FOR ESTABLISHING THE FACT OF THE UNKNOWN ABSENCE OF AN INDIVIDUAL UNDER THE CIVIL LAW OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN //International journal of advanced research in education, technology and management. – 2023. – Т. 2. – №. 4.
8. Burkhanova LM //ББК 74.03 я43 С69. – 2021. – С. 37.
9. Шарахметова У. Issues of improving the regulation of circumstances preventing marriage in family law //Юридик фанлар ахборотномаси. – 2017. – №. 2. – С. 50-53.
10. Features of determining the legal nature and issues of improving the power supply contract as the basis of the production and maintenance infrastructure of the

economy of the Republic of Uzbekistan L Burkhanova, L Achilova, U Shorahmetova
- AIP Conference Proceedings, 2023

11. Shaakbarovna S. U. The concept of the institution of the rights of the child and its
place in the modern legal system //Eurasian Research Bulletin. – 2023. – T. 16. – C.
24-32.